

“ALPOMISH” DOSTONIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI

Botirova Ozoda Jamol qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
O‘zbek tili va adabiyoti fakultetining
4-bosqich talabasi
Atabayeva G.F. - f.f.d.(Phd)dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining nodir namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostoni, undagi umumbashariy fazilatlarining unsurlari, milliy urf-odatlar va an‘analar haqida gap boradi. Dostondagi milliy qadriyatlar tahlilga tortiladi.

Annotation: This article talks about the epic “Alpomish”, which is a rare example of Uzbek folklore, elements of universal qualities, national customs and traditions. National values in the epic are analyzed.

Аннотация: В данной статье говорится об эпосе “Алпомиш”, который является редким образцом узбекского фольклора, элементами общечеловеческих качеств, национальными обычаями и традициями. Анализируются национальные ценности в эпосе.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, doston, qadriyat, urf-odat, “Alpomish”

Key words: folklore, epic, value, tradition, “Alpomish”

Ключевые слова: фольклор, эпос, значение, традиция, “Алпомиш”

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda har tomonlama ya’ni ijtimoiy-siyosiy, madaniy jihatdan rivoj topmoqda. Shu rivojlanish jarayonida xalqimizning ma’naviy dunyoqarashi ham kengaymoqda. Yuksalishlar jarayonida xalqimiz uchun ma’naviy dunyosi va o‘zligini saqlab qolish o‘ta muhim masala hisoblanadi. Darvoqea, bularning barchasi ma’naviy merosga tayangan holda amalga oshiriladi. Ma’naviy meros- bu xalqimizning qadimiy tarixi davomidan bugungacha saqlanib kelayotgan, ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lgan ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar, qimmatbaho qo‘lyozmalar, moddiy va ma’naviy san’at asarlaridir. Barchasining asosida xalq og‘zaki ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodi shaxsning kamolatida, ma’naviy dunyosida, o‘zligini anglashda va komil inson sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Xalq og‘zaki ijodining badiiyligi, tilning ravonligi, musiqiyliги insonlarga katta ta’sir o‘tkazadi, ularning shijoatini oshiradi. Insonlarning o‘smirlik paytida o‘rganadigan darsliklarida ham xalq og‘zaki ijodining qo‘shiq, maqol, topishmoq, ertak, doston, afsona, rivoyat, asotir va boshqa janrlari kengroq o‘rin olgan bo‘lib, ularda ta’lim-tarbiyaga oid xalq donishmandligi o‘z o‘rnini topgan. Xalq og‘zaki ijodida sara va durdona namunalar judayam bisyor bo‘lib, ular orasida doston

katta qismni tashkil etadi. Dostonchilik an'nalar, ularni o'rganadigan maktablar bugungi kunda muhim vazifalarni bajarmoqdalar. So'z san'atining qadimiy tur bo'lgan xalq eposlarida mehnatkash xalq ommasining asrlar davomida turmush tarjibalari, ozod va farovon hayotga intilishlari, adalotsizliklarga qarshi kurashlari o'z ifodasini topgan. Dostonlar orasida "Alpomish"ning bu borada ahamiyati e'tiborga loyiqdir. Unda ifodalangan mavzular bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Fozil Yo'ldosh "Alpomish" dostonini eng yuqori darajada kuylagan baxshilardan biridir. Aynan mana shu nusxada qahramonlik eposi xususiyatlari to'la va mukammal darajada saqlangan bo'lib, badiiylik jihatidan ham, voqealarning hayotiyliigi jihatidan ham o'zbek dostonlari orasida alohida o'ringa ega o'zbek xalq eposi hisoblanadi. O'zbek xalq ijodining eng yaxshi asari bo'lgan "Alpomish" dostonida bir oila timsolida butun bir xalqning parchalanishi haqida gap ketadi va mana shu parchalanish bir qahramon orqali yanada mustahkamlanadi. Bu dostonda qahramonlik, mardlik, jasurlik, do'stlik va yana shu bilan birgalikda muhabbat kabi tuyg'ular vatanparvarlik g'oyalari orqali tasvirlanadi. Doston o'z nomi bilan alplar maydonida yuz beradi. Qahramonlarning bir-biriga bo'lgan ishonchi, mehri cheksiz tarzda tasvirlanib, bunda aynan xalqning bir-biriga bo'lgan so'nmas oqibati obrazlarning qilgan ishlari orqali tasvirlanadi. Asarda voqealar o'n olti urug' bo'lgan Qo'ng'iro't eli, Boysun –Qo'ng'iro't diyorida kechadi va shu el uchun jonini fido qiluvchi obrazlar orqali ochib beriladi. Shu elni sevuvchi, shu el g'ami-qayg'usi bilan yashaydigan, xalqni xursand bo'lsa xursand bo'luvchi, g'am kelganda birga g'amni yenguvchi el boshliqlari asarning yanada qiziqarli bo'lishiga sabab bo'ladi. Eldan ketish, qoni to'kilgan joyni doim qumsash, qarindoshlardan ayrilish tuyg'ularini tuygan qahramon tuyg'ulari kitobxon va tinglovchilarni to'lqinlantirib yuboradi. Doston shunchaki his - tuyg'ular kuylangan asar bo'lmasdan, haqiqiy insoniy tuyg'ularni kuylagan asardir.

O'zbek tanqidchilari va kitobxonlar orasida o'zining tanqidiy va o'ziga xos fikrlari bilan mashhur bo'lgan Qozoqboy Yo'ldoshev o'zining "Alpomish" dostoni talqinlariga bag'ishlangan kitobida "Har bir o'zbekning milliy kitobiga aylanishi lozim bo'lgan "Alpomish" dostoni zamiridagi badiiy javohirlarni izlab topish, uning ko'rkam va umri uzoq asarligini ta'minlagan jihatlarini tayin etish dostonning ahli millat tomonidan tushunib va sevib o'qilishini ta'minlagan bo'lardi"¹, - deya yozadi. Albatta, bu e'tirof etilgan fikrlarga qo'shilmadan iloj yo'q.

Darhaqiqat, xalqning zukko dahosi bilan yaratilib, xalqning yaxshilikka intilishlarini, qahramonligi, jasorati, mardligini, ezgu orzu-umidlari, armonlarini tom ma'noda o'zida jamlagan "Alpomish" dostoni bugungi yosh avlodni vatanparvarlik, millatga sadoqat ruhida tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo'lmoqda. Bunday fikrlar bejiz emaski, bu eposda kuylangan xalq qahramoni obrazi yoshlar qalbiga

¹ Yo'ldoshev Q. "Alpomish" talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma'naviyati haqida ayrim fikrlar. - T.: Ma'naviyat, 2002. 6-bet

ilhombaxsh nur kabi taralmoqda. Yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim manbaa bo'lib xizmat qilmoqda. Mana shunday asarlar hozirgi yosh avlod uchun muhim va zarur dastur-u amal vazifasini o'tamoqda.

“Alpomish” dostoni qahramonlik voqealariga boyligi bilan o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini, an'analarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan ham ajralib turadi. Bu dostonda juda ko'plab va keng tarzda milliy urf-odatlarimiz saqlangan. Mana nechi yillarki, bu an'ana va urf –odatlar o'zbek xalqini tark etgani yo'q. Ba'zi bir odatlar nomlanishi jihatidan o'zgargandir, ba'zilari esa yo'qolgandir, ammo ularning katta qismi bugungacha o'zining kuchini yo'qotmagan. Ayni paytda milliy urf-odatlar va qadriyatlarni, asriy an'analarni yangicha ruh bilan qayta tiklab, hayotga qaytarish ishlari bugungi kunning muhim omil bo'lmoqda. Shu sababli biz bu an'analar va milliy qadriyatlarni yangicha ruh va mazmunda qayta o'rganishimiz bugungi yoshlarimiz va kelajak avlod uchun muhim ma'naviy boyluk bo'lib qoladi. Bu boyluklarni biz ko'z-qorachig'imiz kabi asrashimiz lozimdir.

Asarda urf-odatlar bilan birgalikda milliy o'zbek o'yinlari ham tilga olinadi. Asarning boshlanishidan biz urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga duch kelamiz. Ko'p marotaba o'zbek xalqning eng yaxshi qadriyati bo'lgan to'y milliy an'anasi tilga olinadi. Asar boshlanishi bilan “chupuron to'y” nomi bilan atalgan bugungi kunda “sunnat to'y” deb ataladigan marosim bo'lib, mana shu to'y aka-ukalarni tezroq farzandli bo'lishga undaydi. Bu marosim o'g'il bolalarni sunnat qilgan paytda el-u xalqni osh qilib chaqirish bo'lib, unda aka-uka Boybo'ri va Boysari xushlanmaydi. Shu payt xalq “bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?!²”, - degan gap-so'zlarni qilishadi. Bu gap- so'zlar shu elning ham boyi ham shoyi bo'lgan aka-ukalarga yoqmaydi va ular ham farzandli bo'lishni xohlashadi.

Epos davomida biz yana bir to'yning guvohi bo'lamiz. Bu o'zbek xalqning, qolaversa barcha xalqning urf-odatiga aylangan nikoh to'y marosimi hisoblanadi. Bu marosim dostonida muhim hisoblanadi. To'y marosimi davomida biz juda ko'plab, o'zbek xalqning asrlar davomida an'anasiga va urf-odatiga aylangan qiziqarli odatlarni ko'ramiz.

“Suyunchi” va “To'yona” nomli odatlarimiz ham mavjud bo'lib, bu odatlar o'zbek folkloridagi dostonlarning ajralmas qismiga aylangan. Bu odatlarni biz “Alpomish” va “Rustamxon” dostonlarida ham ko'rishimiz mumkin. Suyunchi odati “Alpomish” dostonining bir nechta o'rinlarida uchraydi. Ular farzandli bo'lganida kim ularni oldida yaxshi xabarni birinchilardan bo'lib yetqazsa suyunchi berishini aytadi. “Rustamxon” dostonida ham shu holat takrorlanadi. Sul-tonxonga farzandli bo'lganini aytgan kishiga ko'plab hadiya berishi yoki qo'rg'on begi qilishini aytadi. Bu odatning

² Fozil Yo'ldosh o'g'li. *Alpomish*. -T.: “G'ofur G'ulom”, 2016. B.33.

mazmuni shuki, yaxshi xabar kutiyotgan odamga o'sha xabarni yetqazgan odamga hadiya berish. Bu odat bugungacha saqlanib qolgan bo'lib, xalqimiz yaxshi xabarlar eshitganlarida hadiyalar inom qiladi. "To'yona" odati ham bugungacha saqlanib, shu nom ostida aytiladi. Bu odatning mazmuni shundan iboratki, to'y qilayotgan kishiga foydasi tegishi uchun o'zidan kelib chiqqan holda hadiya berish. "Alpomish" dostonida ham aka-uka boylar chupuron to'yga kelganida "80 tilla chupuronga tashlab, turib ketdi"³, - degan voqeasi bo'lib, mana shu to'yona deb yuritiladi.

Biz dostonida yanada ajoyib bo'lgan odatlarga guvoh bo'lamiz. Ulardan biri "ro'mol berish" odati bo'lib, bu odatni aynan "Alpomish" dostonida uchratamiz. Bu marosim yetti nomdor alpning onasi Surxail kampir tomonidan bajarilmoqchi bo'ladi. Bu yettinchi o'g'il Qorajonga Barchinoyni unashtirish uchun kerak bo'ladigan odat sifatida o'tkaziladi. Bu odatning mazmuni qiz bolaning egaligini bildirish uchun kerak. Bugungi kunda bu odat mahalliy nomlarda "oq o'rar", "oqliq berish" nomlari ostida o'tkaziladi.

Dostonida milliy urf-odatlarimiz keng qo'llanilgan bo'lib, biz "qo'l ushlar", "kampir o'ldi", "it irillar", "to'qqiz tavoq" nomli rasm-rusumlarni ham ko'rishimiz mumkin. Bu an'analarning barchasida necha ming yillardan beri sayqallanib kelyotgan o'zbek xalqining qadriyatlari jamlangandir. Bu an'ana-yu urf-odatlarda biz o'zligimizni ko'ramiz, ulardan badiiy-estetik zavq olamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, xalq og'zaki ijodining nodir namunasi bo'lgan "Alpomish" dostonida umummilliy, umumbashariy qadriyatlarning adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'lishini o'rganish hamda millatimizga, xalqimizga xos bo'lgan urf-odat va an'analarni badiiy tafakkur nuqtai nazaridan tadqiq etishdan bugungi kunda o'ta muhimdir. Ularni anglash va kelajak avlodga to'la qonli yetkazish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. "Alpomish" talqinlari yoki doston badiiyati hamda millat ma'naviyati haqida ayrim fikrlar. - T.: Ma'naviyat, 2002. 6-bet
2. Fozil Yo'ldosh o'g'li. Alpomish. - T.: "G'ofur G'ulom", 2016. B.34.
3. Sharipova M. "Alpomish" dostoni-o'zbek xalqi tarixi badiiy ifodasi (buxdu. uz). - 2020. - T. 1.
4. Саримсоқов Б. Фольклор ва адабиёт муносабатларидаги акс жараённинг ҳозирги аҳволи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – №6. – Б.28-31.
5. D. O'rayeva. O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. "O'qituvchi" Nashriyat-matbaa ijodiy uyi / Toshkent – 2007
6. <https://litportal.ru/avtory/gothold-lessing/kniga-laokoon>
7. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/>
8. www.natlib.uz

³ Fozil Yo'ldosh o'g'li. Alpomish. - T.: "G'ofur G'ulom", 2016. B.34.